

## DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA AHLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdurahmonova Gulnoza Qahramon qizi  
*Andijon viloyati, Marhamat tumani 2-DMTT metodisti*

*Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, o'yin, ta'limiy islohot, uzluksiz ta'lim, munosabat*

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ta'lim sohasi e'tirof etildi. Ustuvor soha bo'lgan ta'limni tubdan yangilash, uni mazmunan boyitish, ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va rivojlangan ta'lim darajasiga ko'tarish mamlakatda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning asosiy g'oyasi sanaladi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yildan-yilga maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilayotgani bejizga emas. Zero, maktabgacha ta'lim ta'lim tizimlarining ilk bo'g'ini ekan, boshqa ta'lim tizimining poydevori hamdir. Demak, bolalarning kelajaklari ham shu yerda bunyod etiladi.

Ma'lumki, bola tarbiyasidek o'ta mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda, shubhasiz, bolalar o'yinining alohida o'rnini bor. Bu borada tarbiyalanuvchilarning ilk yoshidan boshlab yaxshilikka, hamjihatlikka, chaqqonlikka, do'stona munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'yin va mashg'ulotlar bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yindir. Bola o'ynab o'ylaydi. U o'yin orqali tashqi olam bilan tanishadi. O'yin faoliyati bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berishda juda qulay vosita hisoblanadi. O'yin - ijtimoiy hodisa. U asrlar davomida olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. O'yin jarayonida bola o'zligini namoyon qiladi. O'yin uning orzularini, xarakter-xususiyatini ochib beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bajariladigan har bir mashg'ulot o'yin tarzida olib boriladi. Bu jarayonda bola zerikmaydi va mashg'ulot maqsadini aniq tushunib yetadi. Chunki o'yin orqali bajarilgan mashg'ulot bolalar uchun sodda va tushunarlidir. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlari va hayoti davomida shakllanadigan xarakter-xususiyatlari rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'g'ri maqsad yo'lida tashkil etilgan o'yin albatta ijobiy samara beradi. Tarbiyachining sharoitga moslangan holda to'g'ri o'yin tanlashi va bolalarni qiziqitira olishi uning rahbarlik mahorati yuksakligidan dalolat beradi. Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlari shakllantirishda

o'yinlar katta rol o'ynaydi. Bog'cha yosh davrida harakatining o'sishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qo'lay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini subyekt aynan o'yin paytida emas, balki 6yevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini idpok etishga yordam beradi. bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar hayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar hayolining o'zi, o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan narsadir. Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning xozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar. O'yin orqali bolalardagi turli ahloqiy sifatlar rivojlanadi. Jumladan, hamjihatlik, do'stlik, mehnatkashlik kabi.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'ladi. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, shifokorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xattiharakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.

3. Abduhakimova M.K. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy –pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Avtoref. ped.fan.nom.-T.: 2004.-22 b.
4. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Avtoref. ped.fan.nom.T.:1998.-25 b.
5. Abobakirova O.N. Sovremeniye problemi i innovatsionniye podxodi podgotovki detey k shkole//Molodoy ucheniy. Moskva, 2015-№3.